



HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDA VATAN TAVSIFI

**Pardayeva Nigora
Kuysinbayevna**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy
pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsent v.b
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: pardayevan7@gmail.com
Tel: +998915999689*

Annotatsiya

She'riyat dunyosida har bir ijodkorning o'z uslubi, o'z yo'nalishi, o'z hayot falsafasi bor. Shunday qalam ahlidan biri Halima Xudoyberdiyevadir. Ushbu maqolada shoiraning ijodiy faoliyati, asarlari haqida ma'lumot berilgan. Shoiraning Vatan mavzusi aks etgan she'rlari xususida mulohaza bildirilgan. Shuningdek, "Vatan", "Vatandir bu", "Vatan deb" singari asarlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar:

Halima Xudoyberdiyeva, vatan, "Vatandir bu", "Vatan deb", sadoqat.

Аннотация: В мире поэзии у каждого художника свой стиль, своё направление, своя философия жизни. Одной из таких писательниц является Халима Худойбердиева. В данной статье представлена информация о творчестве поэтессы. Рассматриваются её стихотворения на тему Родины. Также изучаются такие её произведения, как «Ватан», «Ватандир бу», «Ватан деб».

Ключевые слова: Халима Худойбердиева, Родина, «Ватандир бу», «Ватан деб», верность.

Annotatsion: In the world of poetry, each artist has his own style, his own direction, his own philosophy of life. One of such writers is Halima Khudoyberdiyeva. This article provides information about the poet's creative activity and works. The poet's poem on the theme of the homeland are analyzed. Also, her works such as "Vatan", "Vatandir bu", "Vatan deb" are studied.

Keywords: Halima Khudoyberdiyeva, Homeland, "Vatan", "Vatandir bu", "Vatan deb", loyalty.

KIRISH

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng o'zbek adabiyotida, ayniqsa, poeziyada yana bir yangi davr boshlandi desak, adashmagan bo'lamiz. Bu davrda

yaratilgan ijod na'munalari hurlik nafasi, ozodlikka shukronalik, erkinlik, milliy g'urur, iftixor tuyg'ularining yuksakligi, inson ruhiyatining ustunligi singari sifatleri bilan ajralib turadi. Ma'lumki, mustaqillikkacha bo'lgan davrda yaratilgan asarlarda bu kabi sifatlar kam uchrar edi. Bu haqida adabiyotshunos olim Usmonjon Qosimov quyidagicha mulohaza bildiradi: "XX asrning boshlarida Fitrat-u Cho'lponlar ijodidan boshlanib, 80-yillar adabiyotigacha bo'lgan she'riyatimizda vatan mavzusi, asosan, mayus va ohanglarda kuylanib kelinar edi. "O'zbekistonni – Vatanimni sevaman, Vatanim bilan faxrlanam!" deyish uchun shoir o'z hayotini xavf-xatarga qo'yishi lozim edi. Vatanni ozod va erkin ko'rish orzusi ba'zi shoirlar ijodida o'ziga xos poetik nido va isyon tarzida ham ifodalanib kelindi" [3; 4]

Mazkur maqolada kitobxon ko'nglidan chuqur joy olgan, xalq suyib, ardoqlagan, e'zozlagan shoira Halima Xudoyberdiyevaning Ona yurt madhiga bag'ishlangan she'rlarini tahlil qilamiz. Bu jarayonda mantiqiylik, uzviylik va tavsifiy yondashuvlardan foydalanamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Istiqlol jamiyki qalam ahliga katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Ijodkor Vatanga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatini, sadoqatini, ko'nglidagi barcha shodlik-u quvonchlarini, dard-u alamlarini satrlari orqali ifoda eta oladigan bo'ldi. Halima Xudoyberdiyeva ham shunday imkoniyatlardan unumli foydalangan shoiralardan. XX asr o'zbek she'riyatida Halima Xudoyberdiyeva iste'dodi va rang-barang ijodi bilan ajralib turadi. Adabiyotshunos olim Ibrohim G'afurov shoira ijodi haqida quyidagicha fikr bildiradi: "She'r so'zi misoli karomat yanglig'. Unda xayoldagi hayot o'ngga, o'ngdagi hayot xayolga aynalib boradi. Va bu hech to'xtamaydi.

Halima Xudoyberdiyevaning barcha yozganlari karomatlarga to'la; balki har bir asari karomat" [6; 4].

Shoira ijodida ota-ona, do'stlik, birodarlik, xalqparvarlik mavzulari bilan birgalikda Ona vatan mavzusi ham ustunlik qiladi. Chop etilgan barcha she'riy to'plamlarda ijodkorning tug'ilib o'sgan yurtini ulug'lab, sharaflab, hurriyatni, mustaqillikni kuylab yozgan she'rlari o'rin olgan. Jumladan, "Suyanch tog'larim" she'riy to'plamida "O'zbekiston", "Ona yurtim"; "Bobo quyosh" to'plamida "Yurtimga"; "Yo'ldadirman" kitobida "Vatandir bu", "Ona elim", "Vatan deb" va boshqalar.

Vatani bor har bir inson ko'ngli to'q, xotirjam, quvonch ila hayot kechiradi. Vatani yo'q bewatanlar esa aksincha. Dunyoda vatani yo'q kimsalar qancha. Shoira vatanini "bosh panohim" deya "Vatan"she'rida quyidagicha yozadi.

Boshpanammi, bosh panohim,
Quyosh, mohim, manimsan.
Ko'nglim kuyib aytar ohim,
Qaytar ohim, manimsan [4;188].

Keyingi misralarida shoira o'ngirini o'padigan, o'zbek xonadonlariga ko'rk bag'ishlaydigan namozshomgul-u xongullari, singil singari sirini saqlaydigan yalpizlari vatanida o'sishidan faxrlanadi. Ijodkor shunday ko'rkam, xushhavo yurtda vatanini sevuvchi, unga sadoqat bilan xizmat qiluvchi besh farzand o'stirganidan g'ururlanadi.

Shu qushchalar orasinda

Men besh go‘dak o‘stirdim.

Har birida vatan otlig‘

Ozod yurak o‘stirdim.

Ma‘lumki, vatanni eng aziz inson onaga mengzash barcha ijodkorlar asarlarida uchraydi. Hamma qalam ahli ham vatanni onaga qiyosini turlicha tarzda badiiy tasvirlaydi. Masalan, Halima Xudoyberdiyeva vatanni to‘g‘ridan to‘g‘ri ona deb atamaydi. Shoiri o‘ziga xos yo‘sinda, sodda tilda vatanga murojaat etadi. Bu shoiri ijodining yangicha topilmalarga boy ekanligidan dalolat beradi.

Vatan!

Shunda onaliging

Nogoh chuqur tuygaysan,

Besh bolamning ko‘z yoshlarin

O‘zing artib qo‘ygaysan.

Ijodkor vatanidan farzandlariga onalik qilishini, ularga mehr bilan qarashini iltimos qiladi. Bu orqali shoiri xalqidan, millatidan, yaqinlaridan farzandlarini yolg‘iz qolib ketmasliklari, ularga hamisha g‘amxo‘rlik qilishlarini o‘tinib so‘raydi.

Bu yurt ozodligi osonlikcha qo‘lga kiritilmagani tarixdan ma‘lum. Halima Xudoyberdiyeva bu vatanda kimlar yashab, kimlar o‘tganini, Vatanning bir qarich yeri uchun, uning ozodligi uchun qanchadan qancha insonlar jonini fido qilganligini yaxshi biladi. Shoiri “Vatandir bu” she‘rida shunday yozadi:

Olloh, Olloh Eranlarning

So‘zi qolgan Vatandir bu.

Bo‘zlab o‘tgan to‘rg‘aylarning

Bo‘zi qolgan Vatandir bu [5; 300].

Vatan erki uchun kurashgan bobolarimizning harakatlari zoye ketmadi. Vatanimiz mustaqillikka erishib, o‘zbek nomini, O‘zbekiston deb atalmish jannatmakon diyorni butun jahon tan oldi. O‘z yeriga o‘zi bek bo‘lgan xalqimiz o‘z Vatanda tinch-totuv, xotirjam, xursandchilikda yashashga haqli, albatta. Shoiri aytganidek, bu yurtdagi barcha insonlarni, har bir narsani asrab-avaylaydigan o‘z egasi bor.

Bu yer kimning, bu ko‘k kimning,

Egasi bor har o‘t, chimning,

O‘z yerida O‘zbeginning

O‘zi qolgan Vatandir bu.

Inson hayot kechirar ekan, umri davomida boshidan sinovli kunlar ham, shod-xurramlik onlari ham o‘tadi. Har ikkala kun kishi xotirasida abadiy saqlanib qoladi. Bunday kunlarda beixtiyor ko‘z yosh keladi. Faqat ular sevinch va dard-u alam ko‘z yoshi ekanligi bilan ajralib turadi. Shoiri hayoti va ijodiy faoliyatida ko‘zlari yoshga to‘lgan bashar ahlini ko‘p uchratadi. “Vatan deb” she‘rida ijodkor mana shu hayot haqiqatini o‘ziga xos tarzda badiiy tasvirlaydi.

Ko‘zi yoshlilarni ko‘p ko‘rdim g‘oyat,

Dillar bor har narsa o‘ksintiradi.

Yig‘lashga moyilni yig‘lalar hayot,

Sinishga moyilni... u sindiradi[5; 419].

Ota-onalar har dam farzandlarini tug‘ilib o‘sgan zaminiga munosib o‘g‘lon bo‘lib kamolga yetishini istaydilar. Ularni vatanparvarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, mardlik ruhida tarbiyalashga harakat qiladilar. Shoiralar jigarbandlariga shunday fazilatlarini misralari orqali singdirishga harakat qiladi. Bu nasihatni ijodkor nafaqat bolalariga, balki butun o‘zbek xalqi farzandlariga ham murojaat etmoqda.

O‘g‘lim, ko‘z yoshingni art, so‘zimni uqqin,
Menam “alp tug‘dim” deb ko‘krak kerayin.
Yosh to‘ksang ozodlik uchun yosh to‘kkin,
Yig‘lasang “Vatan” deb, yig‘la, ko‘rayin

XULOSA

Halima Xudoyberdiyeva ijodida Vatanni tarannum etuvchi, uning eng muqaddas dargoh ekanligini tasvirlovchi she‘rlari salmog‘i kam emas. Biz ushbu maqolada uning ayrim she‘rlarining tadqiq etishga harakat qildik. Shoiraning istiqlol shukhi ak etgan, ozodlik ulug‘langan, yurtimiz tarixi ifodalangan asarlarini tahlil qilish, misralar badiiyatini ochib berish adabiyotshunosligimiz oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Pardaeva Nigora. Bilingual poet – Anbar Otin. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ. 3(3), 2021.
2. Pardayeva Nigora Kuysinbayevna. (2025). DORILAMON KUNDA YASHA, BOR EKANSAN TOKI SEN! IQRO INDEXING, 17(02), 299-302.
3. Koysinboyevna, Pardayeva Nigora. “MY COUNTRY, I SAW HAPPINESS ON YOUR FOREHEAD TODAY!” Modern Science and Research. 4 (7), 367-372, 2025.
4. Qosimov U. Adabiyotning hayotbaxsh kuchi. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2008.
5. Xudoyberdiyeva H. Saylanma. 3-jild. – Toshkent: G‘.G‘ulom. 2018. – b
6. Xudoyberdiyeva H. Yo‘ldadirman. – Toshkent: Sharq. 2006.
7. G‘afurov Ibrohim. “Halima ruhoniyyati” maqola. – “Xalq so‘zi” 2019- yil, 22-fevral.